



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

INGLIZ TILIDA AKSIOLOGIK LEKSIKA
XUSUSIYATLARINING IFODALANISHIGA DOIR
О ВЫРАЖЕНИИ АКЦИОЛОГИЧЕСКИХ ЛЕКСИЧЕСКИХ ПРИЗНАКОВ
В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ
ON THE EXPRESSION OF AXIOLOGICAL LEXICAL FEATURES IN THE
ENGLISH LANGUAGE

Islomova Zahro Shuhrat qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
ingliz tili fani o'qituvchisi.
zahroislomova2484@gmail.com
Ilmiy rahbar: f.f.d.prof.N.E.Yuldosheva

Annotatsiya: Ushbu maqolada madaniy qadriyatlarning til orqali ifodalanishi va aksiologik leksikaning ijtimoiy-axloqiy tamoyillarga ta'siri o'rganiladi. Qadriyatlar, diniy tushunchalar va ijtimoiy adolat tamoyillari qiyosiy tahlil qilinib, lingvistik yondashuv asosida tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: madaniy qadriyatlar, ijtimoiy adolat, axloqiy tamoyillar, diniy tushunchalar, aksiologik leksika, til va jamiyat, qadriyatlar tahlili.

Annotation: This article examines the expression of cultural values through language and the influence of axiological lexicon on socio-ethical principles. Values, religious concepts, and principles of social justice are comparatively analyzed and researched based on a linguistic approach.


Keywords: cultural values, social justice, ethical principles, religious concepts, axiological lexicon, language and society, value analysis.

Аннотация: В статье рассматривается выражение культурных ценностей посредством языка и влияние аксиологической лексики на социально-этические принципы. Ценности, религиозные концепции и принципы социальной справедливости подвергаются сравнительному анализу и исследованию на основе лингвистического подхода.

Ключевые слова: культурные ценности, социальная справедливость, этические принципы, религиозные концепции, аксиологическая лексика, язык и общество, анализ ценностей.

Madaniy qadriyatlar va normalar jamiyatdagi axloqiy va ijtimoiy me'yorlarni aks ettiradi. Ular insonlarning kundalik hayotida, xatti-harakatlarida va qarorlarida muhim rol o'ynaydi. Har bir jamiyat o'ziga xos qadriyatlar va normalarga ega bo'lib, ular til vositasida ifodalanadi.

Masalan, "respect" (hurmat), "dignity" (oriyat) va "honor" (sharaf) so'zlari insonlar o'rtasidagi o'zaro ehtiromni ifodalaydi. Hurmat insonlar o'rtasidagi munosabatlarda





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

asosiy tamoyillardan biri bo'lib, bu jamiyatning har bir a'zosiga bo'lgan e'tibor va qadrlash hissini shakllantiradi.

Axloqiy qadriyatlar insonning xulq-atvorini belgilovchi asosiy tamoyillardan biridir. Ingliz tilidagi "honesty" (halollik), "trustworthiness" (ishonchlilik) va "integrity" (vijdoniylik) kabi leksik birliklar axloqiy tamoyillarni aks ettiradi. Halollik insonning har qanday sharoitda to'g'ri yo'l tutishini ifodalasa, ishonchlilik boshqa insonlar bilan bo'lgan munosabatlarda muhim omil hisoblanadi. Vijdoniylik esa shaxsning o'z axloqiy tamoyillariga sodiq qolishini anglatadi.

Ijtimoiy adolat va axloqiy mas'uliyat jamiyatning mustahkamligini ta'minlaydigan muhim qadriyatlardir. Masalan, "justice" (adolat), "fairness" (odillik) va "equality" (tenglik) so'zlari teng huquqlar va ijtimoiy adolat tushunchalarini ifodalaydi. Adolat har bir shaxsga teng munosabatda bo'lishni talab qilsa, odillik esa insonlar o'rtasidagi munosabatlarda muvozanatni saqlashga yordam beradi. Tenglik esa har bir shaxsning jamiyatda teng huquqlarga ega bo'lishini anglatadi. [Usmonova D 2023. 46]

Bundan tashqari, insonparvarlik va hamdardlik ham muhim axloqiy qadriyatlar hisoblanadi. "Compassion" (rahm-shafqat), "kindness" (mehribonlik) va "empathy" (hamdardlik) boshqalarga yordam berish va ularga nisbatan mehr-muhabbat ko'rsatishni anglatadi. Rahm-shafqat insonning boshqalarga nisbatan mehribonlik qilishga intilishidir. Mehribonlik esa odamlarning bir-birlariga yaxshi munosabatda bo'lishlarini ta'minlaydi. Hamdardlik esa insonning boshqalar bilan his-tuyg'ularini baham ko'rish qobiliyatini anglatadi.

Diniy va falsafiy tushunchalar ham insonlarning ruhiy va axloqiy hayotini yoritadi. "Faith" (e'tiqod), "hope" (umid) va "charity" (ehson) so'zlari diniy qadriyatlarni tasvirlasa, "liberty" (ozodlik), "freedom" (erkinlik) va "self-determination" (o'z taqdirini belgilash) kabi so'zlar inson huquqlari va erkinlik tushunchalarini aks ettiradi. E'tiqod insonning ma'naviy hayotidagi asosiy omillardan biri bo'lib, u hayotga bo'lgan munosabatni shakllantiradi. Umid esa insonni kelajakka ishonch bilan qarashga undaydi. Ehson esa jamiyat a'zolarining bir-birlariga yordam berishlariga turtki bo'luvchi muhim qadriyatdir. [Xudoyberganov R. 2022. 624]

Ijtimoiy status va rollar jamiyatdagi munosabatlarning murakkab tuzilishini ko'rsatadi. "Leadership" (rahbarlik), "authority" (hokimiyat) va "status" (mavqe) ijtimoiy hierarxiyani ifodalovchi asosiy tushunchalardir. Rahbarlik insonlarni boshqarish va ularga yo'nalish berish qobiliyatini anglatadi. Hokimiyat esa jamiyatda muayyan shaxslarning qaror qabul qilish vakolatiga ega ekanligini bildiradi. Mavqe esa shaxsning jamiyatdagi o'рни va nufuzini aks ettiradi.

Shuningdek, "reverence for elders" (kattalarga hurmat) va "honoring tradition" (an'analarni qadrlash) madaniy meros va kattalarga bo'lgan ehtiromni yoritadi. Kattalarga hurmat har qanday jamiyatda muhim qadriyat hisoblanadi, chunki bu avlodlar o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlashga yordam beradi. An'analarni qadrlash esa madaniy merosning saqlanishi va keyingi avlodlarga yetkazilishini ta'minlaydi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Madaniy an'analar va urf-odatlarini ifodalaydigan leksika madaniyatning turli jabhalarini aks ettiradi. Masalan, "tradition" (an'ana), "heritage" (meros) va "ritual" (rusum) so'zlari an'anaviy rasm-rusumlarni tasvirlaydi. Bayram va marosimlarga oid "festival" (festival), "celebration" (nishonlash) va "commemoration" (esdalik marosimi) kabi so'zlar muhim tadbirlarni nishonlashni ifodalaydi.

Shaxsiy sifatlar va fazilatlar ham aksiologik leksikaning muhim qismini tashkil qiladi. Masalan, "courage" (jasorat), "humility" (kamtarlik) va "perseverance" (sabr-toqat) kabi so'zlar shaxsning maqtovg'a loyiq fazilatlarini aks ettirsa, "integrity" (vijdoniylik), "loyalty" (sadoqat) va "responsibility" (mas'uliyat) ijtimoiy qadriyatlarning shaxsiy ifodasi hisoblanadi. Adolat va huquqlarni ifodalovchi leksika ham huquqiy va axloqiy tamoyillarni yoritishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, "freedom" (erkinlik), "equality" (tenglik) va "justice" (adolat) so'zlari inson huquqlari va ijtimoiy adolatni ifodalasa, "legal rights" (huquqiy huquqlar), "moral obligation" (axloqiy majburiyat) va "ethical conduct" (axloqiy xulq-atvor) yuridik va axloqiy tushunchalarni tasvirlaydi. [Karimov A.2010. 16]

Ushbu tasnif orqali ingliz tilidagi aksiologik leksikaning madaniy va lingvistik jihatlarini to'liq yoritilib, ularning o'zbek tili bilan qiyosiy tahlili uchun nazariy asos yaratiladi. Aksiologik leksika madaniyatning axloqiy va ijtimoiy tamoyillarini ifodalashda muhim rol o'ynab, til orqali jamiyat qadriyatlari, e'tiqodlari va madaniy merosi haqida chuqurroq tushuncha hosil qilish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, biz ushbu maqolada ingliz va o'zbek iboralarining milliy-madaniy xususiyatlariga ko'ra tasnifini ochib berishga harakat qildik. Biroq tasniflashning boshqa kichik guruhlarini ham borki, ular orasida Biblicisms, Shekspirizmlar, ingliz tilidagi etimologiyaga asoslangan frazeologik birliklar, payg'ambarlar ismlari bilan kelgan frazeologik birliklar, o'zbek tilidagi muqaddas joy nomlari bilan ifodalangan frazeologik birliklar ham o'rganishga arziydi. Tarixiy faktlar, ijtimoiy-siyosiy jihatlar, urf-odatlar va madaniy qadriyatlarning barchasini frazeologizmlarda uchratish mumkin va ularning barchasi tillarda o'xshash mavzuli sohalarni hosil qiladi: atrof-muhit, iqtisodiy va ijtimoiy hayot, his-tuyg'ular, shaxsiy xususiyatlar, axloq va boshqalar. Frazeologik birliklar o'ziga xos va universal bo'lgan psixologik va lingvistik elementlarga asoslanadi, chunki ular madaniyatlarning haqiqiy madaniy piktogrammalariga aylangan. Demak, iboralar ham madaniyatga, ham millatga tegishli til vositalari ekanligini yodda tutish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Islomova Z. O'zbek tilshunosligida aksiologik birliklarning o'rganilishiga doir // O'zMU xabarlarini. – Toshkent, 2024. №1/9/1 –B. 298-300.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

2. Islomova Z. On the Study of Axiological Units in Uzbek Linguistics // American Journal of Education and Evaluation Studies, Vol.1, No.7 (Oct, 2024), E-ISSN: 2997-9439 –P. 306-309
3. Karimov A. O‘zbek xalq maqollari va ularning semantik xususiyatlari. – Toshkent: Sharq, 2010.
4. Usmonova Dona Satvoldiyevna Frazologik birliklarning aksiologik xususiyatlari: filol. fan. bo‘yicha. fals. dokt. (PhD) ... diss. avtoref. – Samarqand, 2023. – 46 b.
5. Xudoyberganov R.Y. va boshqalar. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – 624 b.

